



O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI DARYOLARDAN UNUMLI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xasanov Primjon Ashurovich

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya kafedrasida o‘qituvchisi

Xo‘shboqova Mehriniso Gulmurod qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti geografiya ta’lim yo‘nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston hududidagi daryolarning potensial energiya resurslaridan samarali foydalanish istiqbollari haqida ishlanadi. O‘zbekiston hududidagi daryolarning potensial energiya resurslaridan samarali foydalanish bilan birga aholini ichimlik suvi ta’minoti, maishiy-kommunal xo‘jalik ehtiyojlarini qondirish, sug‘orishda keng foydalanish va daryo suvlarini tartibga solish, GESlar, kanallar barpo etish; Suv resurslaridan tejab-tergab oqilona foydalanish masalalarining tavsifi keltiriladi.

Kalit so‘zlar: potensial energiya, maishiy - kommunal xo‘jalik, himoyalash inshootlari, kanallar, zovur - drenaj tarmoqlari, GESlar, monitoring qilish, oqova suvlar melioratsiyasi.

Abstract: This article is devoted to the prospects of efficient use of potential energy resources of rivers in the territory of Uzbekistan. Along with effective use of potential energy resources of rivers in the territory of Uzbekistan, supply of drinking water to the population, meeting the needs of household and communal economy, wide use in irrigation and regulation of river water. Construction of hydroelectric power plants, canals; A description of the issues of rational use of water resources is given.

Key words. potential energy, household and communal economy, protective structures, canals, ditch drainage networks, hydroelectric power stations, monitoring, wastewater reclamation.

Kirish. Ma’lumki, O‘zbekiston daryolarining xalq xo‘jaligidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Respublikamiz daryolari berk havzaga kiradi va ular hududlar bo‘ylab notekis taqsimlangan. Daryolarning muhim ahamiyati: aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash, maishiy-kommunal xo‘jalik, sanoat va sug‘orishda keng miqyosda foydalanilishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa bugungi kunda, iqlimi quruq, sug‘orib dehqonchilikka asoslangan O‘zbekiston uchun daryolarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati juda katta. Hozirgi vaqtda daryo suvlari bilan 4,2 mln gektar yer sug‘orilmoqda. Shu bilan birga daryo suvlaridan sanoat va maishiy xo‘jaliklarning suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki hech bir sanoat tarmog‘i yo‘qki, unda suv ishlatilmasa?

O‘zbekiston amalda yiliga o‘rtacha 57,781 km.kub suvdan xalq xujaligining ehtiyojlarida foydalaniladi. Xalq xo‘jaligida va sug‘orishda ahamiyati yuqori bo‘lgan daryolar: Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Qoradaryo, Sherobodaryo va boshqa daryolarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Respublikamiz hududidagi daryolarning potensial energiya resurslari 8,8 mln mln kVt ga teng bo‘lib, O‘rta Osiyo daryolari energiya resurslarining 13% ni tashkil etadi. Daryo suvlari oqimini tartibga solish maqsadida,



daryolarga GESlar va to'g'onlar qurilgan. So'nggi yillarda sug'oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilanishi sababli zovur suvlarining ko'payishi, sanoatdan, maishiy-kommunal xo'jalik, transport korxonalari, chorvachilik va fermalarda chiqqan iflos (tarkibida zaharli kimyoviy moddalar mavjud moddalar, bakteriyalar, neft mahsulotlari bo'lgan) suvning bir qismi daryolarga tashlanib, butun bir ekotizimga ta'sir etmoqda. Natijada, daryo suvlarining ifloslanishi va uning organik dunyosining nobut bo'lishiga sabab bo'lgan. Mamlaktimiz suv boyliklarini toza saqlash uchun undan oqilona foydalanish tamoyillarini to'liq darajada ishlab chiqish va ularga tashlanadigan suvlarining iloji boricha tozalash lozim. Ma'lumki, sug'oriladigan hududlardan oqib chiquvchi va tarkibida kimyoviy moddalar bo'lgan zovur suvlarining daryolarga oqizilishiga yo'l qo'ymaslik shart. Shu bilan birga daryo yoqalarida sanitar zonalar, kanalizatsiya va tozalash inshootlari faoliyatini samarali tashkil etish orqali daryo havzalarini kuchli ifloslanishdan saqlashimiz mumkin bo'lib, kichik ammo foydali koeffisienti ko'p bo'lgan atrof muhitga landshaftiga hos daryolarni yoqasida daraxtzorlarni "ixota" shaklda tashkil etish zarur.

O'zbekiston daryolarining xalq xo'jaligidagi ahamiyatini baholash, monitoring qilish va daryo suvlarini ifloslanishdan asrash, Qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda daryolarning o'rni va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish, daryolarning suv rejimini tartibga solish, suv omborlar, dambalar, gidrotexnik inshootlar barpo etish, daryolarning potensial energiya resurslaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Asosiy qism. Ma'lumki daryolar qadim zamonlardan insonlarni suv bilan ta'minlovchi asosiy manbadir. Daryolar kishilarni chuchuk suv bilan ta'minlash bilan birga ularning xo'jalikdagi barcha ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Ayniqsa ichki kontinental berk havzada joylashgan O'zbekiston uchun ham daryolarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati juda yuqori. O'zbekiston hududida 18 mingga yaqin daryo, daryocha va soylar mavjud bo'lib, ular hudud bo'ylab juda notekis taqsimlangan. Birgina Amudaryo havzasida 10 mingga yaqin daryo, Sirdaryo havzasida 5 mingdan ortiq daryolar, qolganlari esa shu oraliqda vujudga kelgan kichik daryo va daryochalardan iborat. O'zbekiston hududida daryo tarmoqlarining zichligi bir xil emas, lekin, qishloq xo'jaligi uchun sug'orma dehqonchilikda eng ko'p suv sarflanadi. Sug'orish punktlarining ko'pligi, suvga to'la bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi va daryo suvlarini har tomonga tarqalib sug'orishga sarflab yuborilishi hozirgi kundagi kuzatilayotgan jarayonlardir. O'zbekiston hududining 21% ishgo'ol qilgan tog' va tog'oldi qismida 1m^2 ga 140-150 m daryo tarmoqlari to'g'ri keladi. Ammo barcha tog'li mintaqalarda bu zichlik bir xil emas. Chunki ba'zi bir tog'lar yalang hamda suvsiz hisoblanadi.

O'zbekiston hududida yiliga 9.701 km^3 daryo oqimi shakllanib, uning Amudaryo 48%, Sirdaryo 52% daryolariga to'g'ri keladi. O'zbekiston suv boyliklari quyidagicha taqsimlanadi: yiliga 95.642 km^3 daryo oqib kiradi. Shuning 52.291 km^3 Amudaryo hissasiga, qolgan 43.351 km^3 Sirdaryo hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston amalda yiliga o'rtacha 57.781 ming km^3 atrofida suvdan foydalanadi. Bundan - 41.421 ming km^3 Amudaryo, 16.309 ming km^3 Sirdaryo hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston daryolari gidroenergiya



resurslarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati beqiyosdir. Iqlimi quruq, kontinental sug'orib dehqonchilikka asoslanganligi bois daryolarning sug'orishdagi ahamiyati juda katta. Hozirda mamlakatimizda 4.35 mln gektar yerni - sug'orish va sho'rini yuvish uchun daryolardan yiliga 53-55 km³ suv olinmoqda. Qishloq xo'jaligi uchun olinayotgan suvning 80% yerlarni sug'orishga sarflansa, qolgan 20% tuproq sho'rini yuvishga sarf bo'ladi. Mamlakatimizda sug'orishga olingan suvning 25-30% zovur-drenaj orqali, ba'zi hududlarda Farg'ona, Surxondaryo vodiy adirlarda, Samarqand botig'i orqali chiqariob tashlanmoqda. Respublikamiz daryolari suvlaridan oqilona foydalanish maqsadida 156 ming km uzunlikda kanallar qurilgan bo'lib, uning 22 km uzunlikdagi qismi xo'jaliklararo, qolgan 134 ming km uzunlikdagi qismi xo'jalik ichidagi kanallarga to'g'ri keladi. Afsuski ushbu kanallarning ma'lum bir qismigina beton qoplamali hisoblanadi. Qolgan qismi esa tuproqqa shimilib, yer osti suvlari satxi ko'tarilishi, tuproq sho'rlanishi va boshqa ekotizimni buzilishiga olib keladigan jarayonlar kechmoqda. O'zbekiston daryolarining sanoat tarmoqlarini, maishiy-kommunal xo'jalikni suv bilan ta'minlashdagi o'rni juda katta. Sanoat tarmoqlari, kommunal xo'jalik va boshqa tarmoqlarning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun daryolardan yiliga 7.5-8.0 km³ suv olinmoqda. Bu suvning 15% sug'orishga sarflansa, qolgan 85% ifloslangan yoki qisman tozalangan holda daryo havzalariga qaytib qo'shilmogda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki mazkur holatda daryolar tashib ketuvchi biroq, o'zi jabr ko'ruvchi bo'lib qolmoqda. Evaziga atrof - muhit, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tabiiy landshaftlar zarar ko'rmoqda. To'g'ri birgina muammo shu bo'lib qolmasdan, boshqa o'z hissasini qo'shadigan muammolar ham mavjud. Misol qilib suv omborlaridagi cho'kindi jinsning to'planishi, qishloq xo'jaligida "ozuqasiz suv"ning yetib borishiga zamin yaratadi. Ikkinchi tomondan turib qolgan jinlar suv omborni tez to'ldiradi.

Hozirgi kunda, mamlakatimizda zovur - drenajlarning umumiy uzunligi 60 ming km bo'lib, ulardan yiliga 13-14 km³ ifloslangan qaytarma suvlar vujudga kelmoqda. Qolgan qismi esa suv havzalariga qo'shilib ularning kuchli darajada ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Daryo suvlarining ifloslanishida chiqayotgan 300-350 mln m³ iflos oqovalar ham sabab bo'lmoqda. Respublikamiz va viloyatlar ixtiyoridagi shaharning 29 tasidagina kanalizatsiya va tozalash inshootlari mavjud bo'lsa, qolgan 13 ta shaharda ishlatilgan iflos oqovalar to'g'ridan to'g'ri suv havzalariga tashlanmoqda. Shuningdek, respublikamizning go'zal manzarali joylar, dam olish uylari, lagerlar va boshqa korxonalaridan chiqayotgan iflos suvlar markazlashgan kanalizatsiyaga ulanmaganligi, tozalovchi inshootlar yo'qligi sababli daryo havzalariga qo'shilib ketmoqda. Mamlakatimiz hududidagi zovur drenajlarni eskirib, muddati o'tgan joylarda qayta rekonstruksiya qilish, zarurat tug'ilgan hududlarda tashkillashtirish ishlarini keng miqyosda olib borish zarur.

Quyida mamalaktimiz xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan daryolarning hududlar kesimida atrof muhitga ta'sirini ko'rib chiqamiz: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Ohangaron, Sherobodaryoning o'rni beqiyosdir.



Amudaryoning xalq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati benihoya katta. Daryo suvidan qishloq xo'jaligida ekinlarini sug'orish va aholining maishiy - kommunal ehtiyojlarida keng foydalaniladi. Amudaryoning quyi oqimida daryo suvini tartibga solish maqsadida bir qancha suv omborlari, kanallarning qurilishi daryoning oxirgi irmog'i Sherobod daryodan boshlab toki salkam 1500 km masofada Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugiga qadar yuqoridagi ekologik holatlar uchraydi va daryoning tabiiy muhiti, juda o'zgargan.

Sirdaryo daryosining suv resurslaridan xalq xo'jaligining barcha sohalari suv bilan ta'minlashda keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Sug'oriladigan yerlar maydonning kengayishi bilan daryoda ko'plab suv xo'jalik, qurilish ishlari amalga oshirildi. Andijonsoy, Shahrixonsoy, Qorasuv, Bo'zsuv, Katta Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Janubiy Farg'ona, Katta Andijon, Ohunboboyev nomli kanal, o'nlab yirik va yuzlab kichikroq kanallar qazilgan. Kanallardan aholini kundalik ehtiyojlarini suv bilan ta'minlashda foydalaniladi. Daryo suv oqimini barqaror saqlash uchun Chordara va Qayroqqum suv ombori tashkil etilgan. Chordara suv ombori Mirzacho'l cho'ldagi yangi yerlarni sug'orish va Qozog'istondagi sug'oriladigan yerlarni suv bilan yanada yaxshiroq ta'minlashga xizmat qiladi.

Zarafshon - Zarafshon daryosi, shu nomli tabiiy geografik okruglarni suv bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Chirchiq daryosi - Toshkent viloyatini suv ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Daryo suvidan xo'jalik ehtiyojlari uchun keng foydalanilmoqda. Chirchiq daryosidan Zaxariq, Bo'zsuv, Qorasuv, Shimoliy Toshkent kanallari suv oladi. Daryodan gidroenergetikada ham keng foydalaniladi. Chorbog' suv ombori suvidan Toshkent viloyati hududidagi ekin maydonlarini sug'orishga sarflanadi (Chirchiq — Bo'zsuv sistemasi O'zbekiston hududida 100 ming gektardan ziyod yerni sug'orishda), shuningdek, Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l, G'azalkent shaharlarini va ko'p qishloqlarni suv bilan ta'minlashdagi ahamiyati yuqoridir.

Ohangaron - Toshkent shahri va Toshkent viloyatini kommunal xo'jalik ehtiyojlari qondirish va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Daryoda 1962-yilda Ohangaron daryosining quyi oqimida "Toshkent dengizi" Toshkent suv ombori qurilgan. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida Tanachi - buqa va Yordon magistral kanallari qazib chiqarilgan. Toshkent dengizi suvi bilan Ohangaron, O'rta Chirchiq, Piskent va Bo'ka tumanlaridagi yerlarni sug'orishda foydalaniladi. Ohangaron daryosi suvidan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida foydalanib kelinmoqda.

Qashqadaryo - Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahrini to'liq suv bilan ta'minlaydi. Qarshi cho'lida o'zlashtirilgan qo'riq yerlarini suv bilan ta'minlaydi. Sug'orish mavsumida suv omborida to'plangan suv Qarshi magistral kanaliga suv o'tkazish imkoniyati 360 m³/sek bo'lgan suv chiqargichlar orqali beriladi. Shuningdek daryoda ko'plab Hisorak, Chimqo'rg'on, Pachkamar suv omborlari tashkil etilgan.

Surxondaryo - Surxondaryo viloyatining asosiy arteriyasi hisoblandi. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida va aholining kundalik ehtiyojlarini suv bilan ta'minlash, sug'orishda keng foydalaniladi. Daryo suv rejimini tartibga solish va samarali foydalanish maqsadida Janubiy Surxon suv ombori qurilgan. Janubiy Surxon suv ombori - Sherobod cho'lidagi 71 ming gektar yerlarni o'zlashtirish hamda sug'oriladigan 52 ming gektar yerning suv ta'minotini yaxshilashda o'rni benihoya katta. Yoz chillasida ekinlar juda ko'p sug'orishni talab etadi va sug'orishda yuzaga keladigan suv tanqisligi muammolarini bartaraf etish maqsadida daryo suvidan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Sheroboddaryo — hozirda daryo suvidan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida samarali foydalanilmoqda. Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish va aholining kommunal ehtiyojlarini suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Daryodan Sherobod shahri, Darband, Dara, Sisanga, Xo'jabo'lgan, Munchoq, Sherobod qishloqlarini suv bilan ta'minlaydi. Daryo suv rejimini tartibga solish va sel toshqinlarini oldini olish maqsadida Sherobod GESi va tarkibida gidrouzel qurilgan. Bugungi kunda, Sheroboddaryo suvidan aholining kommunal ehtiyojlari bilan birga sug'orish va boshqa maqsadlarda samarali foydalanib kelinmoqda.

O'zbekistonning asosiy suv arteriyalari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq va Ohangaron daryolari bo'lib, bu daryolardan oqadigan umumiy suv hajmining juda oz qismi Respublikamiz hududida vujudga keladi. Bu miqdor respublikamizda sarflanadigan yillik suv hajmining atigi 15% ni tashkil qiladi.

O'zbekiston hududidagi daryolarning potensial energiya resurslaridan samarali foydalanishning istiqbolli imkoniyatlari juda katta. Daryo havzalarini ifloslanishdan saqlashimiz va suv resurslaridan oqilona foydalanishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.X.Hikmatov, G'.X.Yunusov, F.Y.Artikova, N.B.Erlapasov, N.L.Dovulov, „Daryolar gidrologiyasi” Toshkent-2017
2. O'zbekiston daryolari va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati ” O'quv-qo'llanma-2017
3. Qashqadaryo viloyati landshaftining shakllanishida tabiiy komponentlar - tog' jinslari va relyefning o'rni. "экономика и социум" №3(94) 2022.
4. D.Rejepova “O'zbekiston ichki suvlari va ularning ekologik holatini o'qitish metodikasi” Toshkent-2013
5. Z.A.Artukmetov, V.Sh.Sheraliyev „Ekinlarni sug'orish asoslari" Toshkent-2007
6. X.Z.Valiyev, Sh.O.Muradov, B. M. Xolbayev „Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish” Toshkent-2010
7. N.Arslova, „O'zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari” taqdimot ishi Toshkent-2014



8. A.S.Badalov, V.A.Zenkova, B.R.Uralov, F.Sh.Shaazizov „Gidroelektrostansiyalar”
o‘quv qo‘llanma Toshkent-2009

9. Возникновение теории о высотных областях и ее своеобразное развитие.
"экономика и социум" №11(90) 2021